

ZAMONAVIY ADABIYOTDA YUNON MIFOLOGIK OBRAZLARINING BADIY TALQIN ETILISHI

Sulaymonova Nozima Nodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

snn.1995.16.06@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mif va uning paydo bo'lishi, mifologiyaning zamonaviy adabiyotdagi o'rni, hozirgi davr adabiyotida mifologik obrazlarning talqini haqida ma'lumot berilgan. Alber Kamyu ijodida mifning yangicha ko'rinishlari, XX asrning oxiri –XXI asr boshlarida o'zbek nasrida G'arb mifologik obrazlarining ramziylashuvi, "Donishmand Sizif" romanida Sizif obraziga doir an'analarning aks etishi kabi masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mif, mifologiya, mifologik tasavvur, mifik obraz, G'arb mifologiyasi, Sharq mifologiyasi, mifologik maktab, folklor.

Abstract. This article provides information about the myth and its emergence, the place of mythology in modern literature, and the interpretation of mythological images in the literature of the present time. Issues such as new views of myth in the work of Albert Camus, the symbolization of Western mythological images in Uzbek prose in the late 20th and early 21st centuries, and the reflection of traditions about the image of Sisyphus in the novel "The Wise Sisyphus" are analyzed in detail.

Key words: myth, mythology, mythological imagination, mythical image, Western mythology, Eastern mythology, mythological school, folklore.

Аннотация. В данной статье представлена информация о мифе и его возникновении, месте мифологии в современной литературе, трактовке мифологических образов в литературе современности. Рассмотрены такие вопросы, как новые взгляды на миф в творчестве Альбера Камю, символизация западноевропейских мифологических образов в узбекской прозе конца 20-начала 21 веков, отражение традиций об образе Сизифа в романе «Мудрый Сизиф». подробно анализируются.

Ключевые слова: миф, мифология, мифологическое воображение, мифологический образ, западная мифология, восточная мифология, мифологическая школа, фольклор.

Jamiyatdagi bironta soha inson va millat qiyofasini adabiyotchilik to‘laqonli ko‘rsata olmaydi. Alohida insonning va, umuman, butun boshli xalqning kuchu qudratidan tortib bir qarashda ko‘zga unchalik tashlanmaydigan zaif jihatlarigacha, ruhiy-ma’naviy aslligini, butun kemtigini hamma-hammasini o‘z bag‘rida qoyilmaqom etib jo qilgulik olam bu – adabiyot bo‘ladi. Adabiyot shunday borliqki, unga qaragan kishi (millat) go‘yo ko‘zguna boqib o‘z holini ko‘radi. Adabiyot – taraqqiyotning sirli va mashaqqatli yo‘lida turfa hollarga tushgan millatning (yoki alohida insonning) bir-biriga o‘xshash va o‘xshamas kayfiyatiga e’tibor qiladi. Binobarin, oradan ko‘p vaqtlar o‘tsada, o‘tmish adabiyotiga sayru sayohat qilgan kelajak avlod vakili o‘z salafklarining boshidan va ko‘nglidan kechirganlarini nafaqat bilib oladi, balki yurak-yurakdan his ham qiladi. Demak, adabiyot o‘tmish, bugun va kelajak aro qo‘yilgan mustahkam ko‘prik, “robitai olamiyondur”. Mifologik g‘oyalar dunyoning deyarli barcha xalqlarida rivojlanishning ma’lum bosqichlarida mavjud edi. Agar yevropaliklar buyuk jug‘rofiy kashfiyotlar davri oldidan faqat qadimgi afsonalar bilan tanish bo‘lishgan bo‘lsa, ammo keyinchalik ular asta-sekin Afrika, Amerika, Okeaniya, Avstraliya aholisi orasida mifologiyaning mavjudligi haqida bilishgan. G‘arbiy semit mifologiyasining aks-sadolari Bibliyada uchraydi. Islom qabul qilinishidan oldin arablar o‘zklarining mifologiyalariga ega edilar. Mifologik tasvirlarning paydo bo‘lish vaqtini aniqlab bo‘lmaydi, ularning shakllanishi til va ongning kelib chiqishi bilan uzviy bog‘liqdir. Mifning asosiy vazifasi inson tomonidan amalga oshiriladigan har qanday muhim harakatlar uchun naqshlar, modellarni belgilashdir.

“Mif” so‘zi yunoncha bo‘lib, so‘zma-so‘z an’analar, afsonalarni anglatadi. Odatda, ular xudolar, ruhlar, xudolariga sig‘inadigan yoki qahramonlar haqida, yerning boshida harakat qilgan va dunyoning o‘zi, tabiiy va madaniy yaratilishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan ajdodlar haqidagi afsonalarni anglatadi. Mifologiya - bu xudolar va qahramonlarning o‘xshash ertaklari to‘plami va shu

bilan birga dunyo haqida hayoliy fikrlar tizimi. Mifologiyani afsonalar ilmi deb ham atashadi. Mifologiya - muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, o'zbek mifologiyasi. Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan Mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. Mifologiyaning asosini odamning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi. Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimgi e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiyki shamsiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo'lgan Mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan. Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari Mifologiya bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimgi diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda ilmiy talqinlar, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so'z san'ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga qamrab olgan. U qadimgi odamning borliq olamni idrok

etishga doir tasavvur va qarashlarini o'zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g'oyasi bo'lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois mifologiya folklor, yozma adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini o'tagan. Mifda shakl mazmun bilan bir xil, shuning uchun ramziy tasvir uning modelini anglatadi. Mifologik tafakkur predmet va ob'ekt, predmet va belgi, narsa va so'z, mavjudot va uning nomi, narsa va uning xususiyatlari, yakka va ko'plik, fazoviy va vaqt munosabatlari, tamoyil va prinsiplar, ya'ni kelib chiqishi va mohiyat aniq ajratilmagan holda namoyon bo'ladi. Bu xilma-xillik xayol va umumlashtirish sohasida o'zini namoyon qiladi.

Yunon xalq badiiy ijodiyoti (folklori) janr nuqtai nazaridan juda boy va rang-barang bo'lib, ular orasida mif (asotir)lar alohida o'rin tutadi. Chunki, ular syujet va obrazlarning chindan ham butun bir xazinasini edi. Mif (asotir)larning majmui va ularni o'rganuvchi fanga nisbatan mifologiya atamasi qo'llaniladi. Mifologiya urug'-jamoatuzumi sharoitida barcha xalqlarning eng asosiy ijtimoiy ong shakli hisoblanadi. Qadimgi Yunonlarning miflarida tabiat va jamiyat haqidagi xayoliy tasavvurlari obrazli ifodasini topgan. Bu insonlar o'zlari ustidan Olimp tog'ida istiqomat qiluvchi ma'budlar hukmronlik qiladi, deb bilganlar va ma'budlarning munosabatlarini ham o'zlari yashab turgan ijtimoiy-tarixiy sharoitga muvofiqlashtirib, urug'-jamoatuzumi tamoyillari asosida tasavvur etganlar. Masalan, Zevsning bosh ma'bud sifatidagi roli, unga qon-qarindoshlik ipi bilan bog'langan boshqa ma'budlar Hera, Poseydon, Aid, Demetra, Afina, Afrodita, Erot, Hefest, Ares, Apollon, Artemida, Hermes, Dionis, Satir va hokozolar tabiat va jamiyat hayotining biror bir sohasini bevosita boshqarishi bu fikrni tasdiqlaydi. Mifologiya butun Yunon xalqi tafakkurining mahsuli sifatida u bilan birga taraqqiy etib, o'sib va o'zgarib boradi. Yunon miflari o'z mavzuyiga ko'ra turkumlarga

birikkan bo‘lib, ular orasida “Troya turkumi”, “Fiva turkumi”, “Argonavtlar turkumi” va boshqalarni sanash mumkin.

Yunon yozma adabiyotining bizga ma’lum bo‘lgan ilk asarlari - Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari o‘z manbaiga ko‘ra qahramonlik haqidagi xalq qo‘shiqlari bilan eng ko‘p darajada bog‘langandir. Homer eposlari Yunonistonning Ioniya muzofotida milod.avvalgi VIII-VII asrlarda yaratilgan va mustabid Pisistrat davrida milod.avvalgi VI asrda yozib olingan. “Iliada” ham, “Odisseya” ham Troya urushi voqealariga bag‘ishlanib, bu urush milod.avvalgi XIII-XII asrlarda ro‘y bergan edi. Aedlar talqinida tarixiy faktlar umumlashtiruvchi va mubolag‘ali xarakter kasb etib, ularga mifologik elementlar ham qo‘shilgan. Shu tariqa harbiy – qahramonlik eposi “Iliada” va sehrlil – maishiy epos “Odisseya” maydonga kelgan. Qadimgi Yunonlar bu asarlarning muallifi Homer ekanligiga hech qanday shubha bildirmaganlar. Biroq uning yashagan davri va yashagan joyi haqida bir-biriga qarama – qarshi ma’lumotlar mavjud. Ularda Homer yashagan davr mil.avvalgi XII asrdan tortib to VI asrgacha deb ko‘rsatiladi. Homer yashagan shahar nomi uchun esa 7 ta shahar Smirna, Xios, Kolofon, Salamin, Rodos, Argos va Afina da’vo bilan chiqqanlar. Homer masalasi, Homer muallifligi haqidagi hamda Homer dostonlarining yaratilishi haqidagi masaladir. XVIII asrning oxirlariga qadar ham “Iliada” va “Odisseya”ning birdan-bir muallifi sifatida Homer so‘zsiz qayd etib kelindi. Homer yunoncha “so‘qir” ma’nosini bildirib, uni so‘qir mo‘ysafid sifatida tasavvur etishgan va haykallardan birida uni ana shunday tasvirlashgan. XVIII asr oxirlariga kelib, nemis olimi F.A.Volf (“Homerga kirish” kitobi, 1795 yil) “Iliada” va “Odisseya” dostonlari xalq badiiy ijodi mahsuli, degan qarashni ilgari surib chiqdi. U Homerning o‘zini bu asarlarni yaratishda ozmi-ko‘pmi ishlagan talay mualliflardan biri, deb hisobladi. Ana shundan buyon o‘tgan ikki asr mobaynida bu masala bo‘yicha ikki oqim shakllandi:

1. Analitik gipoteza, ya’ni eposlarni mustaqil asarlardan tarkib topgan, deb qarash.

2. Unitar gipoteza, ya'ni eposlarning yaxlitligini e'tirof etish.

Ularning har ikkalasini ham bir-biriga kelishtirishga intilish natijasida yuzaga kelgan nazariyalar ham mavjud. Masalan, “Asosiy yadro” nazariyasi tarafdorlari birlamchi matn sekin – asta boshqa mualliflarning qo‘shimcha va kiritmalari bilan boyitib, to‘ldirib borilgan, degan qarashni ilgari suradilar. Biroq barcha qarashlar oxir – oqibat ularning individual yoki jamoaviy ijod samarasi ekanligi haqidagi masalaga borib taqaladi. Homer masalasi hozirga qadar ham o‘zining bus-butun yechimini topgan emas. Homer kuylagan dostonlarda aytilishicha, Olimp ma’budlari Korinf hokimi Sizifni jazolash uchun uni to qiyomatga qadar og‘ir va dumaloq xarsangni baland cho‘qqiga dumalatib chiqarishga hukm qiladilar. Sababi – u isyonkor, ma’budlarni aldagan, O‘limni zanjirband qilgan, hatto bosh ma’bud Zevsga qarshi borishga jur’ati yetgan odam. Ma’budlar bejiz bu jazoni ravo ko‘rishmagan. Chunki xarsangni cho‘qqiga dumalatib chiqarishning iloji yo‘q, Sizif yuqoriga chiqdim deganda, xarsang pastga qarab dumalaydi. Ma’budlarning nazarida Sizifdek isyonkorga bema’ni va befoyda mehnatdan ham og‘irroq jazoni topib bo‘lmaydi. Yevropada “Sizif mashaqqati” yoki boshqacha aytganda, “Sizifchasiga mehnat” degan iboraning paydo bo‘lishi ham shunga ishora. SIZIF, Sisif (lot. Sisyphus) yunon mifologiyasida shamol ma’budi Eolning o‘g‘li. Korinf shahri bunyodkori va shohi. Vafotidan so‘ng yer osti zulmat dunyosi — Aid tomonidan og‘ir mehnatga mahkum etilgan. Unga ko‘ra, Sizif og‘ir xarsangtoshni dumalatib tog‘ning tepasiga chiqarishi lozim bo‘lgan, biroq har gal endi cho‘qqiga yetdim deganda tosh pastga qulab ketavergan. Og‘ir. tuganmas, samarasiz ish va azob-uqubatni anglatuvchi “Sizif mehnati”, “Sizif toshi” iborasi shundan. Sizifning mana shunday azobga mahkum etilganining sababi haqida miflarning turli xil variantlari saqlanib qolgan (xudolarning sirlarini oshkor qilib qo‘ygani va boshqalar). Sizif obrazi yunon dramaturgiyasi (Esxil, Sofokl, Yevripidlarning saqlanmagan asarlari) yangi davr adabiyotida (A. Kamyu, F. Merl) va tasviriy san’atda (Titsian) saqlangan. O‘sha davrlarda juda katta shon-shuhratga sazovor

bo'lgan va V-IV asrlarning fojjanavis shoirlari uchun bitmas – tuganmas syujet manbai vazifasini o'tagan Homer asarlaridan keyingi epik dostonlardan birortasi ham bizgacha yetib kelgan emas. Biz ularning mazmuni haqida Proklning "Xrestomatiya", Apollodorning "Kutubxona" asarlari orqaligina bilib olamiz, xolos.

Mif XIX asrga kelganda ilmiy o'rganildi, uning tabiati, genezisi, mazmun-mohiyati, yo'nalishlari haqida ilmiy mulohazalar o'rta tashlandi. Natijada fanda mifologik maktab nomi bilan ataladigan alohida yo'nalish paydo bo'ldi. U haqida o'zbek adabiyotshunos olimlari – D.Quronov, Z.Mamajonov va M. Sheraliyevalar tomonidan tayyorlangan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da quyidagilarni o'qish mumkin: "Mifologik maktab – XIX asr Yevropa adabiyotshunosligida vujudga kelgan ilmiy yo'nalish. Mifologik maktabning falsafiy negizini F.Shelling, A.Shlegel va F.Shlegel kabi mutafakkirlar ta'limoti tashkil etadi. Bu mutafakkirlar estetikasida miflar juda katta o'rin tutadi. Ularga ko'ra, adabiyot va san'atning vujudga kelishiga miflar asos bo'lgan, mif – poeziyaning javharidir"¹.

Folklor, mif va yozma adabiyot mushtarakligi. Bu uch tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Chunki mifologik qarashlardan folklor kelib chiqqani kabi, yozma adabiyot ham, o'z navbatida, har ikkalasi bulog'idan hali-hanuz suv ichib keladi. Jahon adabiyotida mif va folklorda aks etgan g'oyalarga suyanib, ulardan ta'sirlanib yozilgan asarlar ko'p. Homerning "Iliada" va "Odisseyasi", Esxilning "Zanjirband Prometey", Safoklning "Shoh Edip", Evripidning "Medeya", Dantening "Ilohiy komediya", Navoiyning "Lison ut-tayr", Gyotening "Faust", Tomas Manning "Sehrli tog'" romani asarlarining negizida mif yotadi. Yoki Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani boshqa ko'plab ildizlar qatori, o'zbek xalq og'zaki ijodidan oziqlanganligi, yozuvchining o'z e'tirofidan tashqari, asarning shundoq kompozitsiyasidan bilinib turadi. Mazkur tamoyil

¹ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent.:Akademnashr, 2010.

hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bugungi o'zbek adabiyotida ham qadimgi afsonalarga murojaat qilish tez-tez uchrab turibdi. Kengesboy Karimovning "Ulug' dasht bo'rilari", Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" kabi romanlari, Nazar Eshonqulning "Vola" kabi hikoyalarda Sharq va G'arb afsonalariga yangi, zamonaviy mazmun yuklashga harakat qilingan. "Xo'sh, zamonaviy yozuvchi nima uchun miflarga murojaat qiladi?" degan haqli savol tug'iladi. Ahir, miflar qadim tafakkur shaklining mahsuli bo'lsa, undan keyin bashar ahli diniy va ilmiy tafakkur shakllarini bildi. Hozirda chaqmoq chaqishi yo shamol turishini hech kim Olimp tog'idagi ilohlarning kayfiyatiga, kun va tunni esa bahaybat devning qo'lini ko'tarib tushirishiga bog'lamaydi. Bularning hammasiga bugungi insonning aniq ilmiy isbotlari bor. Yani ilmiy tafakkur insoniyatni xurofotning to'ridan xalos qildi. Lekin nega haligacha miflar yashayapti?.. Chunki shunday miflar borki, ularning zaminida bugungi kun muammolariga eng qisqa va eng ishonarli javoblar yashiringan bo'ladi. Hozirda, yuksak darajada rivoj topgan zamonaviy dunyoda ham bashariyat qarshisida shunday shafqatsiz (javobsiz) savollar paydo bo'lib turadiki, ularning yechimiga eng ko'p miflar yaqin kelishi kishini hayratlantiradi. Shuning uchun ham biz miflarga murojaat qilamiz. G'arbu Sharq afsonalarida talay kesishadigan nuqtalar bor bo'lib, ular ijod va uning tabiatini bir qadar tushunishimizga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda ming yillar mobaynida bashariyat xotirasida saqlanib kelayotgan mif va afsonalarning o'rni, ayniqsa, san'at-u adabiyot uchun beqiyosdir. Dostonnavislar, dramatik va lirik shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, haykaltaroshlar, rejissyorlar o'z asarlarida ushbu ma'naviy buloqdan qonib-qonib suv ichdilar, hanuz ichmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alber Kamyu. Begona: qissa va roman. / Ahmad A'zam tarjimai. – T.:Yozuvchi, 1995.
2. Албер Камю. Миф о Сизифе. 1942 г.
3. Jo'raqulov U. Mif va ijodiy jarayon. –T: 2005.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. va boshqalar Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent.:Akademnashr, 2010.
5. Xotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - Toshkent: 2004-yil.
6. X.Do'smuhammad. Donishmand Sizif. – Toshkent.: O'zbekiston, 2016.
7. O'zME. Birinchi jild. –Toshkent: 2000.